

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

DJURAKULOVA DILFUZA MAVLONOVNA

**O‘ZBEKISTONNING PALEOLIT DAVRI TARIXI VA UNING O‘ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of sciences (DSc)

Djurakulova Dilfuza Mavlonovna

О‘zbekistonning paleolit davri tarixi va uning o‘ziga xos xususiyatlari 3

Джуракулова Дилфуза Мавлоновна

История эпохи палеолита Узбекистана и её особенности 35

Djurakulova Dilfuza Mavlonovna

History of the Paleolithic period of Uzbekistan and its features..... 67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 72

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

DJURAKULOVA DILFUZA MAVLONOVNA

**O‘ZBEKISTONNING PALEOLIT DAVRI TARIXI VA UNING O‘ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Tar489 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Anarbayev Abdulxamidjon Anarbayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: G'oyibov Bobir Sobirovich
tarix fanlari doktori, professor

Sayfullayev Baxtiyor Kurbanovich
tarix fanlari doktori, professor

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/06.04.2024.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 23 09 » soat 14.00 daqiqligida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; Faks: (99866) 239-11-40; E-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (11 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy). Tel.: (99866) 239-11-40, (99866) 239-18-92; faks: (99866) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 09 » 09 kunida tarqatildi.
(2025-yil « 09 » 09 daqiqligida 5 raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E.Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi t.f.d., professor

F.A.Narmanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, falsafa
doktori (PhD)

G.B.Normurodova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixining ajralmas qismi bo‘lgan tosh davrida sodir bo‘lgan muhim o‘zgarishlar zamonaviy sharoitda yuz berayotgan global tarixiy jarayonlarning ko‘hna ildizlarini o‘zida aks ettiradi. Odamning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ibtidoiy madaniyatning vujudga kelishi, eng qadimgi migratsiyalar kabi jarayonlarni kuzatishimiz mumkin bo‘lgan Olduvay, Chjoukoutyan, Lasko va boshqa yuzlab yodgorliklarning YUNESCO tashkiloti Butunjahon madaniy meros yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan. Shu nuqtai nazardan paleolit davri moddiy madaniyati, tarixini o‘rganish bugungi kunning zarur vazifalaridan bo‘lib qolmoqda.

Tosh davri tarixi dunyoning ko‘plab yetakchi ilmiy markazlarining tadqiqot mavzularidan hisoblanadi. Fransiya, Rossiya, AQSh, Italiya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarning ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan tosh davri aholisi moddiy madaniyati, turmush tarzi, xo‘jalik madaniyatiga oid masalalar katta qiziqish bilan tadqiq etilmoqda. Nufuzli ilmiy tashkilotlar, yetakchi davlatlar tomonidan ibtidoiy davr tarixiga oid masalalarni tahlil qilish uchun yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Umumjahon miqyosidagi izlanishlarda zamonaviy yondoshuvlar, fanlararo tadqiqot ishlari qo‘llanilmoqda.

“Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir¹”. Boy tariximiz merosimizni yanada keng tadqiq etish maqsadida o‘zbek arxeologlari bilan dunyoning ilg‘or mutaxassislari o‘rtasida ilmiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bu borada Rossiya, Polsha, Belgiya, Fransiya va Yaponiya arxeologlari bilan tashkil etilgan xalqaro ekspeditsiyalar faoliyatini alohida ta’kidlash joiz. Natijada, O‘zbekistonda paleolit davri tarixini o‘rganishning xalqaro maktablari shakllandi. Ushbu ekspeditsiyalar mahalliy mutaxassislar bilan birgalikda oxirgi o‘n yilliklarda muhim kashfiyotlarni amalga oshirdi va O‘zbekistonning paleolit davri tarixida yangi sahifalar ochildi. Shu nuqtayi nazardan mahalliy va xalqaro arxeologik ekspeditsiyalarning eng qadimgi tariximizni o‘rganishdagi ahamiyati va o‘rni masalalariga aniqliklar kiritish, bu turdagi faktik materiallarni jamlash va tizimli tahlil asosida ilmiy muomalaga kiritish tadqiqotimiz uchun asos qilib olindi. Bu tanlangan mavzumizning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-sonli “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohaslarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi , 2021-yil 30-oktabrdagi PQ-5270-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 18-maydagi 292-sonli, “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-sentabrdagi 792-sonli qarorlari va “Ilm-fanni 2030-

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1–жилд. Тошкент, 2017. Б. 29.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi"gi 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli farmoni hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

O'zbekistonning paleolit davri tarixiga oid arxeologik materiallari bir qator xorijlik mutaxassislarning e'tiborini tortgan. Jumladan, Belgiya ibtidoiy tarix markazi (Bryussel, Belgiya), Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi Nant laboratoriyasi (Fransiya, Nant), Varshava universiteti (Polsha, Varshava), Rossiya Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti Sibir bo'limi (Rossiya, Novosibirsk), Rossiya Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Sankt-Peterburg bo'limi (Rossiya, Sankt-Peterburg), Belarus Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti (Belarus, Minsk) da O'zbekiston hududi paleolit davri tarixi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Rossiyalik olimlar A.Derevyanko, A.Krivoshapkin, belgiyalik olim Marsel Ot va polshalik olim Karl Shimchaklar xalqaro ekspeditsiya tarkibida faoliyat yuritib, O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlarning tarqalishi, paleolit davri tarixiga doir izlanishlar olib borishmoqda. O'zbekistonning paleolit davri yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar rus olimi L.B. Vishnyatskiyning "Палеолит Средней Азии и Казахстана" nomli monografiyasida tahlil qilinadi³. Asarda O'zbekiston hududidan topilgan barcha yodgorliklar tarixshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. O'zbekistonning o'rta paleolit davri yodgorliklari haqida belarusiyalik tadqiqotchi L.V. Kulakovskayaning "Мустье Азии: взгляд из Европы"⁴ nomli maqolasida tahlil qilingan. Maqolada Ko'lbuloq, Zirabuloq va Qo'tirbuloq topilmajoylar materiallari madaniy jihatdan o'rta paleolitning tishsimon-muste variantiga kiritilgan. O'zbekistonning paleolit davri materiallari novosibirlik tadqiqotchi S.V. Shnaydarning ishida⁵ ham tilga olinadi. Unda asosiy e'tibor yodgorliklarning o'rganilish tarixiga qaratilgan.

O'zbekistonning paleolit davri yodgorliklaridan bir qanchasi tojikistonlik tadqiqotchi V.A. Ranovning ilmiy ishlarida tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan⁶. Uning fikricha, Selung'urning 1-madaniy qatlamidan olingan absolyut

² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://archaeolog.ru/pub/about/>; <https://www.sbras.ru/ru/organization/2266/>; <https://www.arch.be/index.php>; <https://www.uw.edu.pl/>; <https://lten.cnrs.fr/en/>; <https://www.academia.edu/>; <https://www.cambridge.org/>; <http://history.by/struktura> va boshqa manbalar asosida tayorlandi

³ Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург: изд-во «Европейский дом», 1996. – С. 221.

⁴ Кулаковская Л.И. Мустье Азии: Взгляд из Европы // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной и Восточной Азии и Америки. Новосибирск, 1990. – С. 114.

⁵ Шнайдер С.В. История исследований палеолита Узбекистана. – Новосибирск, 2011. – С. 32.

⁶ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. – Душанбе, 1973.– С. 77.

sanalash 120 ming yillar bilan sanalangan. Shuningdek, tadqiqotchi Selung'urni galkali madaniyatlar qatoriga kiritmadi. Vaholanki, Selung'urda, asosan, galkalardan foydalanilgan. Bundan tashqari, V.A. Ranov Ko'lbuloq, Qo'tirbuloq va Zirabuloq makonlari madaniy yotqiziqlarining barchasini aralashib ketgan, deb hisobladi. Keyingi tadqiqotlarda Ko'lbuloqda aralashmagan madaniy qatlamlar ham talaygina ekanligi aniqlandi.

1994-1995-yillarda Ko'lbuloq makoni va uning atrofidagi paleolit davri yodgorliklarini o'rganish uchun Sankt-Peterburglik tadqiqotchi N.K. Anisyutkin ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Qo'lga kiritilgan natijalari hamkorlikdagi "Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г"⁷ nomli risolasida batafsil bayon qilindi. Bu davrda amalga oshirilgan asosiy xulosalar Qizilolma-2, Jarsoy 1-2, G'ishtsoy kabi topilmajoylardan ilk paleolit davri materiallarining topilishi bo'ldi. O'zbekistonning paleolit davriga oid materiallari fransiyalik tadqiqotchi F. Brunening O'rta Osiyo tosh davri industriyalarini tadqiq qilishga bag'ishlangan таджикот ishida tahlil qilingan va ularning ishlanish texnikasi o'rganilgan⁸. Samarqand vohasida trassologik tadqiqotlar o'tkazildi va paleolit davri industriyalarini o'rganish yuqori sifat darajasiga ko'tarildi⁹.

Muammoning o'rganilish darajasi. Mustaqillik davrida olib borilgan tadqiqotlar natijasida o'nlab yangi kashfiyotlar qilindi va bir qator eski qarashlarga yangicha arxeologik talqinlar berildi. Bunda xalqaro hamkorlikning o'rni muhim bo'ldi. Xalqaro ekspeditsiyalar tadqiqotlari natijasida yurtimizda paleolit davriga oid Angillak, To'daxotin, Angren, Teshik-tosh 2, Oyoqog'itma, Bo'kantog' (№23 va 24 punktlar) kabi yangi yodgorliklar ochib o'rganildi. Ko'lbuloq, Qizilolma 2, Obirahmat, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Omonqo'ton kabi yodgorliklarda ilmiy tadqiqot ishlari davom ettirildi. Natijada qator muhim yutuqlarga erishildi. Birgina Obirahmat g'orining 16-madaniy qatlamidan topilgan paleoantropologik materiallar dunyo fanidagi hozirgacha ustun bo'lgan nazariy qarashlarni o'zgartirdi.

Hozirda O'zbekiston paleolit davri arxeologiyasi muammolari bo'yicha dunyoning nufuzli nashrlarida o'nlab ilmiy maqolalar va qator monografiyalar chop etilgan. Biroq, ular hanuzgacha umumlashtirilgan holda bir tizimga solingan emas.

Zirabuloq makoni materiallari asosida "O'rta Zarafshon vohasi tosh davri madaniyatlari" mavzusidagi ilmiy ish 2022-yilda B.Q. Sayfullayev tomonidan amalga oshirildi¹⁰. Qo'lga kiritilgan asosiy natijalar qatoriga Zirabuloq makoni

⁷ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г. – Санкт-Петербург, 1995. – С. 24.

⁸ Brunet F. L'industries paléolithique en Asie Centrale (L'étude typologique). Paris, 1998. – P. 129.

⁹ Джуракулова Д.М. Зарафшон ҳавзаси илк маданияти тарихидан. Буюк ипак йўлида умуминсоний ва миллий кадрятлар: тил, таълим ва маданият. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд-Шанхай, 2016. – Б. 317-319; О'sha muallif. Markaziy Osiyo qadimgi tosh davri industriyalarining genezisi muammolari. Materials of the International scientific conference, dedicated to the 80 th birthday and 50 th anniversary of scientific and pedagogical activity prof. Nona Armaisovna Avanesova. Samarkand, 2021. – P. 108-114; О'sha muallif. Самарқанд маконининг маданий-даврий хусусиятларига доир мулоҳазалар. СамДУ Ахборотномаси, 2018, №2 (108). – Б. 13-17.

¹⁰ Джуракулов М.Ж., Сайфуллаев Б.К. "Кўрсатгич бармоқ" типигаги тош пичоқларнинг Зирабулоқ варианты. // Ўзбекистон Археологияси, 2018, №2 (17). – Б. 75-88; Сайфуллаев Б.К. Роль сырья в развитии

materiallarining oʻrta – soʻnggi paleolit va mezolit davrlari bilan nisbiy sanalanishi, yodgorlikning soʻnggi paleolitga oid kompleksida baliq tangalarini tozalashga ixtisoslashgan tosh pichoqlarning va ularni sindirib olishning konseptual texnologiyasi kashf qilingani va shuning baravarida, Oʻrta Zarafshon vohasi paleolit davri jamoalari xoʻjaligi mahalliy anʼanalar asosida rivojlanganligining aniqlanishi boʻldi¹¹. Ushbu tadqiqotda, asosan, Oʻrta Zarafshon vohasi tosh davri materiallari tizimlashtirilgan va umumlashtirilgan, xolos.

Demak, mustaqillik yillarida xalqaro hamkor ekspeditsiyalar va mahalliy olimlar tomonidan Oʻzbekiston paleolit davri tarixi boʻyicha qoʻlga kiritilgan materiallar juda boy, ularni tizimlashtirish, umumlashtirish va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish dolzarb muammo hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti “Oʻzbekistonning eng qadimgi va oʻrta asrlar davri moddiy madaniyati: vorisiylik va innovatsiyalar (2021-2025 yy.)” (ATP-1) mavzusidagi besh yillik ilmiy tadqiqot rejasi bilan bogʻliq.

Tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarida mahalliy va xalqaro ekspeditsiyalar tadqiqotlari natijasida qoʻlga kiritilgan materiallarni qiyosiy-ilmiy tahlil qilish orqali Oʻzbekistonning qadimgi tosh davri tarixini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Oʻzbekistonda xalqaro hamkorlikda amalga oshirilgan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini belgilash;

- Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida Oʻzbekistonda paleolit davri yodgorliklarini oʻrganilish tarixini yaratish va shu asosda mavzu doirasida muammolarni kun tartibiga qoʻyish;

- qoʻlga kiritilgan soʻnggi tadqiqotlar natijalari asosida Oʻzbekiston hududi ilk paleolit davri yodgorliklarining yangicha madaniy-davriy talqinini ishlab chiqish, umumlashtirish va ularning tarqalish xaritalarini tuzish;

- keng qiyosiy tahlillar asosida Oʻzbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning oʻrta paleolitdan soʻnggi paleolit davriga oʻtishining Oʻrta Zarafshon modelini ishlab chiqish, uning kelib chiqishi va madaniy xususiyatlarini aniqlash;

- keng qiyosiy tahlillar asosida Oʻzbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning oʻrta paleolitdan soʻnggi paleolit davriga oʻtishining Borsa-Kelmas modelini ishlab chiqish, uning kelib chiqish ildizlarini va uning Oʻrta Osiyo paleolit davri tarixida tutgan oʻrnini aniqlash;

техники обработки камня в палеолите Самарканда (по материалам местонахождений Кутирбулак и Зирабулак). // Взгляд в прошлое, 2019, №25. – С. 30-42; Sayfullayev Bakhtiyor Kurbanovich, Ergashev Odil Tursunovich the Zirabulak variant of the stone knife of the “forefinger” type. Journal of Critical Reviews ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 11, Malaysia, 2020. – P. 540-542; Сайфуллаев Б.Қ. Ўрта Зарафшон воҳаси тош даври маданиятлари (Зирабулок топилмажойи материаллари асосида). – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. – Б. 385.

¹¹ Сайфуллаев Б.Қ. Ўрта Зарафшон воҳаси тош даври маданиятлари (Зирабулок топилмажойи материаллари асосида). – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. – Б. 4-15.

- paleoekologik hamda petrografik tahlillar asosida O‘zbekiston paleolit davri madaniyatining farqlanishida paleoekologik va xomashyo omillarining ta’sirini ishlab chiqish;

- tarixiy obyektivlik, umumlashtirish, tizimlashtirish va nazariy-evolyutsion usullari yordamida O‘zbekiston hududi paleolit davri madaniyatlari tarqalishining yangicha talqinini va ularning genezisi hamda madaniy-davriy xususiyatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon o‘tgan yillar davomida yuritimizda tadqiq qilingan paleolit davriga oid yodgorliklar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini O‘zbekistonning paleolit davri tarixining xalqaro ekspeditsiyalar va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilishi tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy haqiqat va xolislik nuqtayi nazaridan yondashildi. Ilmiy muammoni o‘rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy usullardan, ya’ni analiz va sintez, tizimlashtirish, mavhumlikdan aniqlikka intilish, qiyoslash, tarixiy jarayon va holatni obyektiv tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston paleolit davri tarixini o‘rganilishida turlicha ilmiy qarashlar mavjudligi aniqlanib, ular yaxlit tizimga solingan. O‘zbekistonda paleolit davri yodgorliklarini o‘rganilish tarixi yaratilgan va yodgorliklar shu asosda xaritalashtirilib, qo‘lga kiritilgan natijalar, ilmiy izohlangan;

- Xalqaro hamkor ekspeditsiyalar va dunyo mamlakatlari arxeologlarining tajribasiga tayangan holda to‘plangan ma’lumotlar tizimlashtirilib, O‘zbekiston paleolit davri yodgorliklarini o‘rganilish tarixi uch bosqichga ajratilgan va paleolit davri tarixining yangicha madaniy-davriy talqini ishlab chiqilgan;

- Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Jarsoy, Toshsoy, G‘ishtsoy kabi qator yodgorliklarning tadqiq etilishi orqali Markaziy Osiyo hududi bundan bir million yuz minginchi yillar oralig‘idagi davrda qadimgi jamoalar tomonidan o‘zlashtirilganligi asoslangan;

- O‘zbekiston hududida paleolit davri jamoalari xo‘jaligi farqlanishida va turli o‘tish davri modellarining paydo bo‘lishida paleoekologik va xomashyo omillari aniqlanib, ilmiy asoslangan;

- Xalqaro ekspeditsiyalar tomonidan ishlab chiqilgan Obirahmat modeliga mos tarzda O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit davriga o‘tishning O‘rta Zarafshon va Borsa-Kelmas modellari hukm surganligi aniqlanib, ular qo‘shni jamoalar bilan sinxron tarzda madaniy aloqada rivojlanganligi ilmiy izohlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda paleolit davri jamoalari xo‘jalik taraqqiyotining turlicha bo‘lishida paleoekologik va xom ashjo omillarining ta’siri aniqlangan;

- O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit davriga o‘tishining Obirahmat modeli qatoriga, yangi O‘rta Zarafshon va Borsa-Kelmas modellari qo‘shildi;

- O‘zbekiston mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari umumlashtirildi va tizimlashtirildi, shuningdek qo‘lga kiritilgan ilmiy yutuqlar tahliliy-tanqidiy o‘rganilgan va bu nafaqat Vatanimiz, balki butun Markaziy Osiyo paleolitshunosligi bazasini yanada kengaytirgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda tarix fanida tan olingan ilmiy yondashuvlar va usullar asosida birlamchi moddiy madaniyat manbalaridan, keng qamrovli adabiyotlardan foydalanilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati uning O‘zbekiston tarixi, etnologiya, arxeologiya fanlarining metodologik yondashuvlarda, tipologiya, texnologiya, morfologiya va boshqa tosh davri madaniyatlarini o‘rganuvchi fan sohalarida nazariy bilimlarni yanada boyitishda foydalanishi mumkinligidadir.

Tadqiqot natijalari, umumiy xulosa va tavsiyalaridan O‘zbekiston tarixi, arxeologiyasi va ibtidoiy jamiyat tarixlarini yoritishda foydalanish mumkin. Jumladan, dissertatsiya materiallari tosh davri kolleksiyalarini tadqiq qilishda, tasniflashda, davrlashtirishda va madaniy xususiyatlarini aniqlashda tor doiradagi mutaxassislar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tashi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

“O‘zbekistonning paleolit davri tarixi va uning o‘ziga xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston paleolit davri tarixini o‘rganilishida turlicha ilmiy qarashlar mavjudligi aniqlanib, ular yaxlit tizimga solingan. O‘zbekistonda paleolit davri yodgorliklarini o‘rganilish tarixi yaratilgan va yodgorliklar shu asosda xaritalashtirilib, qo‘lga kiritilgan natijalar, ilmiy izohlanganligi O‘zbekiston hududida o‘rtadan so‘nggi paleolitga davriga o‘tishning O‘rta Zarafshon hamda Borsa-Kelmas modellari to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarix va yangi talqin” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston telekanali” davlat muassasasining 2023 yil 7 noyabrdagi 06-28-1678-son ma‘lumotnomasi). Natijalar tomoshabinlarning O‘zbekistonda paleolit davri tarixi, moddiy va madaniy hayotiga doir yangi ma‘lumotlarni egallashlariga xizmat qilgan;

Xalqaro hamkor ekspeditsiyalar va dunyo mamlakatlari arxeologlarining tajribasiga tayangan holda to‘plangan ma‘lumotlar tizimlashtirilib, O‘zbekiston paleolit davri yodgorliklarini o‘rganilish tarixi uch bosqichga ajratilgan va paleolit davri tarixining yangicha madaniy-davriy talqini ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston, xususan, O‘rta Zarafshon vohasi paleolit davri yodgorliklari (Qo‘tirbuloq, Zirabuloq, Samarqand makoni) xususiyatlarini belgilovchi tosh buyumlardan: ibtidoiy odamlar tomonidan tayorlangan levallua o‘zaklar, uchirindilar, plastinalar va tosh pichoqlardan Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasida ekspozitsiyalarini yaratilishida keng foydalanilgan (Vazirlar mahkamasi huzuridagi Madaniy meros agentligining 2023-yil 6-noyabrdagi 04-09/2149-son ma‘lumotnomasi). Natijada muzey eksponatlari orasidan joy olgan ushbu ashyolar muzeyga tashrif buyuruvchilarga O‘rta Zarafshon vohasida

yashagan ajdodlarimizning turmush tarzi, toshga ishlov berish texnologiyalari, xo‘jaligi va madaniy hayoti haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishlarida xizmat qilgan;

Selung‘ur, Ko‘lbuloq, Jarsoy, Toshsoy, G‘ishtsoy kabi qator yodgorliklarning tadqiq etilishi orqali Markaziy Osiyo hududi bundan bir million yuz minginchi yillar oralig‘idagi davrda qadimgi insonlar tomonidan o‘zlashtirilganligi asoslangan bo‘lib, O‘zbekistonda paleolit davri madaniyatlari farqlanishining paleoekologik va xomashyo bilan bog‘liq omillari to‘g‘risidagi xulosalar, taklif va tavsiyalardan madaniy merosimizni saqlash va uni kelajak avlodga bus-butun yetkazish, turizm sohasini rivojlantirish borasidagi xalqaro “Oltin meros” fondi amaliy tadbirlarini o‘tkazishda, istiqboldagi rejalarini belgilashda keng foydalanilgan (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining 2023-yil 5-noyabrdagi 01-50-04.11/23-son ma‘lumotnomasi). Natijalar xalqimizning boy o‘tmish merosimiz tarixiga doir yangi ma‘lumotlarni qo‘lga kiritishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston hududida paleolit davri jamoalari xo‘jaligi farqlanishida va turli o‘tish davri modellarining paydo bo‘lishida paleoekologik va xomashyo omillari aniqlanib, ilmiy asoslangan, shu jihatdan O‘zbekistonning paleolit davrini o‘rganishda xalqaro hamkor ekspeditsiyalarning tadqiqot natijalari aks ettirilgan ma‘lumotlardan o‘quv qo‘llanma tayyorlashda foydalanildi. (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2023-yil 7-noyabrdagi 005/009-son ma‘lumotnomasi). Natijada O‘zbekistonning paleolit davrini o‘rganishda xalqaro hamkor ekspeditsiyalarning yutuqlari o‘quvchiga O‘zbekistonning paleolit davrini o‘rganishda yangi ma‘lumotlarni qo‘lga kiritishga xizmat qilgan;

Xalqaro ekspeditsiyalar tomonidan ishlab chiqilgan Obirahmat modeliga mos tarzda O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit davriga o‘tishning O‘rta Zarafshon va Borsa-Kelmas modellari hukm surganligi aniqlanib, ular qo‘shni jamoalar bilan sinxron tarzda madaniy aloqada rivojlanganligi haqidagi ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarix va yangi talqin” ko‘rsatuvi senariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston telekanali” davlat muassasasining 2023 yil 7 noyabrdagi 06-28-1678-son ma‘lumotnomasi). Natijalar teletomoshabinlarning O‘zbekistonda paleolit davri tarixi, tarixiy xususiyatlari va madaniyat tarixining tarixiy ildizlari haqidagi ilmiy bilimlarining yanada mustahkamlanishi uchun xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi: Dissertasiya natijalari 9 ta ilmiy anjuman va seminarlar, shu jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi: Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestasiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola (xususan, 10 ta respublika va 2 ta xorij jurnallarida) e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 210 bet va 14 bet ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi haqidagi ma'lumotlar, maqsadi, vazifalari, tadqiqotning obyekti va predmeti yoritib berilgan, shuningdek dissertatsiyaning respublikadagi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatib o'tilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, qo'lga kiritilgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi** O'zbekistonda paleolit davri tarixini o'rganish bosqichlari va muammolariga bag'ishlanadi. Ma'lumki, mualliflarning ilmiy ishlarida O'zbekiston paleolitini o'rganilish tarixi ko'p bora yoritilgan va bu boradagi ko'plab muammolar ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokamalarga sabab bo'lgan¹². Ushbu bobning asosiy yo'nalishlaridan biri O'zbekiston hududida paleolit davrini o'rganishning asosiy bosqichlarini ajratish va xarakterlashdan iborat. Bob ikkita paragraflardan iborat. Uning birinchi paragrafi O'zbekiston paleolit davrini o'rganilishining 1-bosqichi (1938-1954-yy.)ga bag'ishlangan. O'zbekistonda paleolit davrini tizimli va ilmiy o'rganish 1938 yilda Boysuntog'dagi Teshik-tosh g'orini ochilishi bilan boshlanadi. So'ngra ikkinchi jahon urushi munosabati bilan rossiyalik arxeologlar ham O'zbekistonga evakuatsiya qilinadi. 1938-1949 yillarda to'rtta yodgorlik tadqiq qilingan: 1947 yilda Omon-Qo'ton yodgorligi aniqlangan va uni o'rganish ishlari 1957 yilgacha amalga oshirilgan. Makonda arxeologik ishlar xarakteriga ko'ra tadqiqotlarning birinchi davriga oiddir. Shuning uchun bu holatni 1958 yilgacha bo'lgan birinchi va ikkinchi davr tadqiqotlarining eng oxirgi chegarasi deb hisoblash taklif qilindi. Tadqiqotlarning 1-davri dastlabki ilmiy ma'lumotlarning to'planishi davridir. Bu davrda Amir-Temur, Kattaqo'rg'on, Takalisoy, Samarqand makoni kabi yodgorliklar ochib o'rganilgan. Bu davrda mahalliy kadrlar bo'lmagan va arxeologik tadqiqotlarga Rossiyalik mutaxassislar rahbarlik qiladi. Arxeologiya bo'yicha maqolalar chop etilgan Respublika miqyosidagi nashrlardan «Труды Узбекистанского филиала Академии наук СССР» (Труды УзФАН СССР) ni aytish mumkin va u 1940 yildan 1943 yilgacha nashr etilgan. 1948 yilda UzSSR FA Tarix va arxeologiya instituti «Труды Института истории и археологии» jurnalining birinchi soni chop etiladi.

Bu davrda paleolitshunoslikni rivojlantirish uchun mahalliy asosda barcha sharoitlar shakllanadi: dastlabki tadqiqotchilar tomonidan istiqboldagi tadqiqotlarning dolzarbligi asoslab beriladi, Tarix va arxeologiya instituti va Sharq

¹² Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. – М.: Изд-во МГУ, 1949. – С. 7-85; Касымов М.Р. Палеолит Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. на соиск. ученой степени д.и.н. Новосибирск, 1990. – С. 40; Джуракулов М.Д. История изучения каменного века Средней Азии. Автореф. дисс канд. ист. наук. – Самарканд, 1966. – С. 22; Djurakulova D.M. Problems of the Genesis of Ancient Stone Age Industries in Central Asia. Jour of Adv Research in Dynamical & Control Systems, Vol. 12, 05-Special Issue, Malaysia, 2020. – Pp. 1153-1156; O'sha muallif. O'rta Osiyo tosh davri industriyalarining vujudga kelishi muammolari. // СамДУ Ахборотномаси, 2019, №6 (118). – В. 12-14.

qo'lyozmalarini o'rganish instituti, shuningdek SamDU Arxeologiya kafedrasini tashkil etiladi, hamda ularda mahalliy kadrlar etishib chiqdi¹³.

O'zbekiston paleolitini o'rganishning 2-davri keng qamrovli yoki "Ommaviy tadqiqotlar davri (1954-1991-yy.)" deb nomlandi. Bu davrda paleolit davri yodgorliklarini ochib o'rganish o'tkazilayotgan keng qamrovli irrigatsion qurilishlar ortishi oqibatida rekognostik faoliyat intensivligining ortishi bilan bog'liqdir.

Asosiy irrigatsion qurilmalarning barpo etilishi XX asrning 30 yillari oxiri va 40-yillari boshlariga to'g'ri keldi va ular Vatan urushi tufayli to'xtatib qo'yildi. Bu ishlar faqatgina 50-yillarda qayta jonlantirildi va 80-yillarda avjiga chiqdi. Aynan ana shu davrda arxeologik ekspeditsiyalarning katta qismi shakllantirildi va bundan maqsad qidiruv hamda qutqaruv ishlarini olib borish bo'ldi. Bu toifadagi arxeologik tadqiqotlar doirasida 46 ta yodgorliklar ochildi.

Bu davrda shuningdek, O'zbekistonning qator yodgorliklarida keng qamrovli statsionar tadqiqotlar ham olib borildi. Bularga Samarqand makoni, Obirahmat, Xo'jakent, Ko'lbuloq kabi asosiy yodgorliklarni kiritish mumkin. Bu yodgorliklardagi ishlar multidissiplinar xarakterga ega bo'ldi: arxeologlar paleozoologiya, palinologiya, geologiya, trassalogiya va h.k. mutaxassislar bilan hamkorlik qildilar. Arxeologik qatlamlarni absolyut sanalash usullarining qo'llanila boshlanishi ham shu davr bilan bog'liqdir (Samarqand makoni, Obirahmat).

Asosiy tadqiqotchilik faoliyati avj olgan irrigatsion qurilishlar atrofiga konsentratsiyalashdi, shunga mos ravishda, aniqlashtiruvchi faoliyatlar qurilishlar doirasida arxeologlar ishtirokida amalga oshirildi. Shunday qilib, bu davrda to'qqizta arxeologik guruh ish olib bordi: Bo'zsuv arxeologik ekspeditsiyasi (1955 y.; rahbari – G.V. Parfenov), Qayroqqum arxeologik ekspeditsiyasi (1954-1956 yy.; rahbari A. P. Okladnikov), Moxondaryo arxeologik guruhi (1958, 1959, 1961 yy.; rahbari Y. G'. G'ulomov), Farg'ona arxeologik guruhi (1964-1967 yy.; rahbari – Y. G'. G'ulomov), Chatqol-Qurama arxeologik guruhi (1966-1967; M. R. Qosimov); Toshkent viloyatida qidiruv ishlari (1966, 1969 yy.; rahbari – A. A. Asqarov); Samarqand viloyatida qidiruv ishlari (1971, 1972 yy.; rahbari – Y. F. Buryakov); Bo'stonliq arxeologik guruhi (1962-1965 yy., rahbari – Y. G'. G'ulomov); To'palang guruhi (1981, 1984-1986 yy.; rahbari – M. R. Qosimov).

Ta'rif etilgan davrga yakun yasab (1950-yillarning boshlari – 1980-yillarning oxirlari), uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Bu davrda hududning paleolit davri tarixiga oid muammolar kompleksi to'liq shakllanib bo'ldi. Birinchidan, bu hududdagi paleolit davri madaniyatlarining genezisi – ularning quyi paleolit madaniyatlaridan avtoxton rivojlanishi yoki boshqa hududlardan kirib kelganligi masalasi. Ikkinchidan, arxeologik

¹³ Djurakulova D.M. Tangible Cultural Heritage of the Silk Road from the Area of Modern Uzbekistan. The Role of Archaeologists at Samarkand State University in the Study of Archaeological Sites on the Great Silk Road. Lublin, 22 mart, 2021. – P. 129-133; O'sha muallif. "Samarqandda So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarning yakunlari (Samarqand davlat universitetining arxeologik izlanishlari asosida)" Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Sempozyumu. Samarkand, 12-16 Ekim, 2018. – B. 15-19; O'sha muallif. O'rta Osiyo tosh davri industriyalarining vujudga kelishi muammolari. // СамДУ Ахборотномаси, 2019, №6 (118). – B. 12-14.

madaniyatlarga ajratish masalasi. Uchinchidan – arxeologik madaniyatlar sohiblarining antropologik ko‘rinishi. To‘rtinchidan – so‘nggi paleolitga oid yodgorliklarning o‘rta paleolit hamda mezolit davri yodgorliklariga nisbatan miqdoriy nomutanosibli va h.k. masalalar.

1959 yildan boshlab “O‘zbekistonda moddiy madaniyat tarixi” (O‘MMT) jurnalini ta’kidlash joiz va u chop qilina boshladi. 1958 yilda SamDU olimlari o‘zlarining “Труды Самаркандского государственного университета им. А.Навои”, deb nomlangan nashrini chiqara boshlaydi va undan arxeologik tadqiqot ishlari hisobotiga bag‘ishlangan maqolalar ham o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston paleolit davrini o‘rganishning uchinchi bosqichi Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin boshlanib, hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.

Taklif qilinayotgan ushbu dissertatsion tadqiqot O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon o‘tgan chorak asrdan ortiqroq vaqt mobaynida hududning qadimgi tosh davrini o‘rganish ishlarining yakuniy natijalari, ularning tahlili, qo‘lga kiritilgan ilmiy xulosalarning sintezi hamda tanqidiy mushohadalariga bag‘ishlangan.

Tadqiqotlarning 3-davri xalqaro loyihalar davri deb nomlanib, hozirgacha davom etmoqda (1991 y.-hozirgacha) va bu davrda tadqiqotlar hudud paleolitining aniq bosqichlariga yo‘naltirildi. Bu davrda To‘daxotin 1 va 2, Angren, Yangiobod 1 va 5, Jom, Bulung‘ur, Chashmabuloq, Ko‘kcha, Oyoqog‘itma, Sulton Uvaystog‘, Machay 2, To‘da 1, Chodak, Sariqo‘rg‘on 1, Jonobod, Qo‘turbuloq va boshqa yangi topilmajoylar topilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Qo‘lga kiritilgan natijalar yurtimizning qadimgi tosh davri madaniyatlari tarqalishi xaritasini boyitibgina qolmasdan, so‘nggi paleolit davriga oid To‘daxotin 2 makoni mezolit davriga xos mikrolit qurollarning mahalliy so‘ngi paleolit industriyalari asosida rivojlanganligini ko‘rsatdi. Farg‘ona vodiysidan ilk marotaba aniqlangan so‘nggi paleolitga oid Chodak, Sariqo‘rg‘on va Qo‘turbuloq materiallari hududning ibtidoiy davr tarixidagi yetishmayotgan bo‘g‘inni to‘ldirdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbekistonda ilk paleolit davri tarixi va arxeologiyasining mahalliy va xalqaro ekspeditsiyalar tomonidan o‘rganilishi”**, deb nomlanib, u uchta paragraflardan iborat: 1-paragraf Ohangaron vohasi va Farg‘ona vodiysi ilk paleolit davri (Ko‘lbuloq va Qizilolma-2 topilmajoylarining quyi qatlamlari, Jarsoy-2 va Toshsoy topilmajoylari, Selung‘ur g‘or makoni) ning o‘rganilishiga bag‘ishlangan.

Qizilolma-2 yodgorligi¹⁴ xom ashyo konlari bilan bog‘liq ustaxona bo‘lib, ibtidoiy odamlar bu yerga kremniyni qo‘lga kiritish va unga birlamchi va qisman ikkilamchi ishlov berish maqsadida tashrif buyurishgan¹⁵. Topilmajoyning ustki qismidan yig‘ib olingan dastlabki materiallar o‘rta va so‘nggi paleolit davrlari bilan sanalangan. Ushbu tepalikning sharqiy qismi buldozer yordamida yo‘l o‘tkazish maqsadida neogen qatlamlarigacha bo‘lgan chuqurlikda buzib yuborilgan. Bu yerdagi ochilib qolgan neogen davri yotqiziqlari ustidan 25

¹⁴ Касымов М.Р. Памятники каменного века в долине Ангрена // ОНУ, №2, 1967. – С. 57-58.

¹⁵ Касымов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. – Ташкент, 1972. – С. 50.

santimetrlik qatlam aniqlangan bo‘lib, undan 214 ta tosh buyumlar yig‘ib olingan. Ushbu artefaktlar ilk paleolit davri bilan sanalangan va Toshkent vohasining eng qadimgi materiallaridan hisoblangan¹⁶.

2007-2008-yillarda O‘zbekiston-Rossiya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi olimlari Qizilolma-2 ustaxonasida tadqiqot ishlarini davom ettirdi¹⁷. 2008 yilda yodgorlikda amalga oshirilgan chuqurligi 4 m ga yetkazilgan qazishma (maydoni 8 m²) natijalariga ko‘ra uchta litologik qatlam o‘rganilib, qatlamlarda arxeologik materiallar ko‘p uchrashi, har uchala qatlamlardan olingan artefaktlar so‘nggi paleolitga xos ko‘rinishga ega ekanligi aniqlandi¹⁸. Qizilolma-2 so‘nggi paleolit davrining birinchi yarmiga oid va u Obirahmat madaniyatining ilk bosqichlarini ifoda etadi, deb xulosa qilindi.

2007-2011-yillarda Oxangaron vodiysida o‘tkazilgan O‘zbekiston-Rossiya xalqaro ekspeditsiyasi tadqiqotlari Ko‘lbuloq va Qizilolmada ilk paleolit davri jamoalari yashaganligini to‘liq inkor qildi.

Jarsoy-1 topilmajoyi Ko‘lbuloqdan 1 km shimoliy-sharqda joylashgan va 1994 yilda K.A. Kraxmal tomonidan ochilgan. Ushbu soydan 1995 yilda o‘rta paleolit davriga oid 30 ga yaqin tosh buyumlar yig‘ib olingan. Ushbu kolleksiyaning o‘ziga xos xususiyati unda levallua texnikasining yuqori darajadagi nisbati bo‘lib, bu O‘zbekistonning paleolit davri uchun xarakterli emas. Jarsoy kompleksiga yaqin analogiyalar sifatida Tojikistondagi Xudji makoni materiallarini keltirish mumkin¹⁹.

So‘ngra birinchi punktdan 100 metrlar yuqoriroqdan Jarsoyning ikkinchi topilmajoyi aniqlangan bo‘lib, undan bir necha o‘nlab tosh buyumlar yig‘ib olingan. Ushbu tosh buyumlar o‘zining arxaikligi bilan ajralib turadi va ular orasida qo‘pol bifaslar hamda tosh boltalar (kliver) uchraydi. Shuning uchun ham, ushbu kompleks ilk paleolit davri bilan sanalangan. Jarsoyning har ikkala topilmajoyidan yig‘ilgan materiallarning barchasi yashmadan ishlangan²⁰.

O‘zbekiston-Rossiya xalqaro hamkor arxeologik ekspeditsiyasi 1994-yilda qadimgi paleolit davriga oid Toshsoy makonini ochishga muvaffaq bo‘ldi²¹. Yodgorlikda arxaik ko‘rinishdagi ilk paleolit davriga oid tosh buyumlar: chopperlar, kertikli va tishsimon qurollar, klekton tipidagi uchirindilar uchraydi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida xalqaro hamkor ekspeditsiyalar tomonidan O‘zbekistonning Toshkent vohasi hududidan qadimgi tosh davri

¹⁶ O‘sha joyda. – С. 54.

¹⁷ Деревянко А.П., Исламов У.И., Колобова К.А., Фляс Д., Кривошапкин А.И., Лещинский С.В., Крахмаль К.А., Звинц С. В., Павленок К.К., Мухтаров Г.А. Возобновление археологических работ на многослойной стоянке Кульбулак в 2007 г. // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 36. – Ташкент: Изд-во Фан, АН РУз., 2008. – С. 24-37.

¹⁸ Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция. – Тошкент, 2009. – С. 7-16.

¹⁹ Ранов В.А., Амосова А.Г. Раскопки мустьерской стоянки Худжи в 1978 г. // Археологические работы в Таджикистане, №18, 1984. – С. 11-47.

²⁰ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. «Охангарон палеолитчилар гуруҳи 1995 йилги ёзги ва кузги мавсумларда олиб борилган дала-тадқиқот ишларининг ҳисоботи». Самарқанд, 1996. – Б. 21.

²¹ Исламов У.И., Крахмаль К.А., Анисюткин Н.К. Ташсай – новый древнепалеолитический памятник Узбекистана // ОНУ, 1995, №1-2-3. – С. 47-48.

madaniyatlarining rivojlanishi haqida guvohlik beruvchi yangi materiallar ilmiy muomalaga kiritildi.

Selung'ur g'or makoni A.P. Okladnikov tomonidan 1955-yilda aniqlangan. 1964-yilda g'orda M.R. Qosimov qisqa muddatli tadqiqotlar o'tkazgan²². A.P. Okladnikov va M.R. Qosimov tadqiqotlari oralig'ida yodgorlik A. Poshka tomonidan o'rganilgan²³.

Biroq Selung'urda tizimli tadqiqotlar 1980-yillarda O'.I. Islomov boshchiligida boshlandi. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan 30 turdagi yovvoyi hayvonlar suyaklari qoldiqlaridan tashqari, 1500 taga yaqin tosh buyumlar ham qazib olingan²⁴.

Selung'ur g'oridagi №8 qazishmaning 2-madaniy qatlamidan odamning bosh chanog'i bo'lagi hamda sochilgan tishlari topilgan²⁵. 3-madaniy qatlamdan esa ayrim tishlar (10 ta) va yelka suyagi topilgan. Ular ikkita, uchta va ehtimol, to'rtta turli individlarga tegishli (35-40 yoshlardagi erkaklar va bittasi ayol kishiga tegishli)²⁶. Ushbu tishlar sharqiy xomo erektuslarga oidligi aniqlangan²⁷.

Bundan tashqari, Selung'urdan 10 yoshli bola diafizining pastki qismi va quyi epifizi topilgan²⁸ va ular paleoantroplar hamda neantroplar o'rtasidagi oraliq shaklga oid, deb topilgan²⁹.

Selung'ur makoni madaniy yotqiziqlarining hozirgi xronologik xolati litologik hamda faunistik ma'lumotlar jamlamasiga asoslangan. Ibtidoiy odam ushbu g'orda uzoq vaqt, 1,0-0,6 mln yillar oralig'ida istiqomat qilgan³⁰. V.A. Ranov³¹ Selung'urning quyi qatlamlarini 350 ming, yuqori qatlamlarini esa 100 ming yillar bilan sanalagan³². 1,0-0,6 mln yillik sanalar N.K. Anisjutkin tomonidan qabul qilingan³³.

Selung'ur makoni kompleksida ko'plab turli-tuman galkali qurollar mavjud³⁴.

²² Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. – Ташкент, 1966. – С. 7-13.

²³ Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // ВА. Вып.2, 1960. – С. 38.

²⁴ Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // СА, №2, 1990. – С. 115-117.

²⁵ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 1995. – С. 220.

²⁶ Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сельунгур // Вопросы антропологии 80. М., 1988. – С. 38-49; Зубов А.А. Еще раз о зубах из пещеры Сельунгур // Археология, этнография и антропология Евразии. Новосибирск, 2009, № 2 (38). – С. 235-243.

²⁷ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Древнепалеолитические отложения пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 17. Зубов А.А. Еще раз о зубах из пещеры Сельунгур // Археология, этнография и антропология Евразии. Новосибирск, 2009, № 2. (38). – С. 235-243.

²⁸ Исламов У.И., Зубов А.А., Харитонов В.М. Палеолитическая стоянка Сельунгур // Вопросы антропологии 80. М., 1988. – С. 38-49.

²⁹ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Древнепалеолитические отложения пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. – С. 17.

³⁰ O'sha joyda. – С. 106.

³¹ Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и хронологии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1996. – С. 50-51.

³² Ranov V.A., Carbonelli E., Rodriguez X.P. Kuldara: Earliest Human occupation in Central Asia in its Afro-Asian context // Current Anthropology 16|2. 1995. – P. 337-345.

³³ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести, №7, ИИМК РАН, Санкт-Петербург, 2000. – С. 15.

³⁴ O'sha joyda.

2015-yildan boshlab Selung'ur makonida tadqiqotlar Rossiya-Qirg'iziston-Germaniya xalqaro hamkor ekspeditsiyasi tomonidan qayta jonlantirildi³⁵. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga ko'ra Selung'ur makoni tosh industriyasi o'rta paleolitga oid va u hududning sinxron komplekslaridan farqli ravishda Sharqiy Yevropaning mikokka oid materiallari bilan yaqin analogiyalarga ega, degan xulosaga kelindi³⁶.

Hozirda Selung'ur g'or makoni materiallarining madaniy-davriy talqini borasida yakdillik yo'q. Ko'pgina mutaxassilar tomonidan makonda bifaslar va tosh boltalar kabi belgilovchi qurollar tiplarining mavjudligi tan olinmadi (A.P. Derevyanko, L.B. Vishnyatskiy, V.A. Ranov).

Ikkinchi bobning 3-paragrafi Qoraquduq 1 ustaxonasining ilk paleolitga oid kompleksini o'rganilishiga bag'ishlangan. Ustaxona Ustyurtning Borsa-Kelmas botig'i janubiy-sharqiy chekkasida joylashgan³⁷. Qoraquduq toshga ishlov berish ustaxonasining 1-kompleksi tosh buyumlari (86 ta) birinchi navbatda, saqlanish darajasiga ko'ra ajratilgan. Ushbu kompleksning tosh buyumlari xuddi ustaxonada sochilib yotgan kuchli kremniylashgan oxaktoshlar kabi silliqlashgan va ba'zan tipologik jihatdan o'rganilishi qiyin.

Qoraquduq topilmajoyining birinchi kompleksi avvalombor, saqlanish darajasiga ko'ra, ya'ni materiallarning kuchli darajada yemirilishga uchraganligi sababli ilk paleolit davri bilan sanalanishi mumkin. Bu kompleksda uchraydigan tosh o'zaklar, ayrim uchirindilar, qirg'ichlar va tishsimon qurollar uni ilk paleolit davri bilan sanalashga monelik qilmaydi. Biroq materiallarning kam sonliligi kompleksning madaniy-davriy interpretatsiyasi borasida keng fikrlar yuritish imkonini bermaydi. Agar Qoraquduqning uchala kompleksini birlashtirgan holatda fikr yuritsak, yodgorlikning tosh buyumlarini madaniy jihatdan Orol-Kaspiybo'yi mintaqasi paleolit davri madaniyatlari doirasiga kiritish mumkin.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi** O'zbekiston paleolit davri madaniyatlari farqlanishining asosiy omillarining o'rganilishiga bag'ishlangan. O'zbekiston paleolit davri yodgorliklarini hamkor ekspeditsiyalar tomonidan yangidan tadqiq etilishi sohaga yangi tadqiqot uslublari, tabiiy fanlarning yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarini ochdi. Jumladan, 1995-yilda O'zbekiston-Polsha, 2001-yilda O'zbekiston-Amerika, 2013-yilda O'zbekiston-Yaponiya xalqaro hamkor ekspeditsiyalari tashkil qilindi. Tadqiqotlar davomida arxeologik yodgorliklarning tosh qurollari tahlilidan tashqari, xom ashyo masalasi, paleolit davri hayvonot olami to'g'risidagi ma'lumotlar ham umumlashtirildi. Yodgorliklarning geologik tahlili amalga oshirildi.

Bobning 1-paragrafi "O'zbekiston hududining ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilishiga ta'sir ko'rsatgan tabiiy omillari" deb nomlanib, unda paleolit davrida O'zbekiston hududida paleoekologik sharoitlar madaniyatlarning nafaqat shakllanishiga, balki turlicha bo'lishiga ham olib kelganligi asoslangan.

³⁵ Кривошапкин А.И., Виола Б., Колобова К.А., Чаргынов Т., Бакчиев Д. Возобновление исследования пещеры Сельунгур (Кыргызстан) // Проблемы археология, этнография, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Новосибирск, 2015, № 21. – С. 94-98.

³⁶ Ўша жойда. – С. 95.

³⁷ Бижанов Е. Находки памятников палеолита на юго-восточном Устюрте // Вестник КФАН УзбССР, 1979, №.3. – С. 71; Бижанов Е. Палеолит Устюрта // Вестник КФАН УзбССР, 1988, №.1. – С. 68.

Ilk pleystotsen³⁸ning oxiri va o'рта pleystotsen davrining boshlarida (600-200 ming yillar avval) O'рта Osiyoda mo'tadil iqlim hukm surgan, tabiiy sharoitiga ko'ra qadimgi odamlarning yashashi uchun juda qulay jo'g'rofik hudud hisoblangan. Mintaqa turli tabiiy landshaftlardan tarkib topgan: tog' va tog' oldi hududlar, dasht va chala dasht hududlar va h.k. To'rtlamchi davrdanoq mintaqaning Pomir, Oloy, Tyan-Shan kabi tog' va tog'oldi hududlarida qadimiy daryolar o'zani hamda tog' yonbag'irlari bo'ylab buta va o'rmon o'simliklari barq urib o'sgan, shu sababli ushbu hududlar o'simlik va hayvonot dunyosiga boy bo'lgan. Ilk paleolit davridan boshlab mazkur hududlar qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilgan, ular tabiiy boshpanalardan, daryo o'zanlari va buloqlar yaqinidagi tepaliklarning yon-bag'irlaridan makon sifatida foydalanishgan. Tabiiy boshpanalar asosan g'or, ungur va qoya osti ayvonlari hisoblanib, turli xil tabiiy qiyinchiliklardan: yog'in sochinlar, issiq va sovuqdan, yirtqich hayvonlardan va h.k. dan himoya qilgan³⁹.

Qulay paleoekologik sharoitlar eng qadimgi odamlarga hududda nafaqat g'or va ungurlarda, balki suv xavzalari bo'ylarida ochiq tipdagi makonlar qurib yashash imkonini ham bergan⁴⁰.

Selung'ur g'ori madaniy qatlamlaridan olingan gul-chang tahlillariga ko'ra O'рта Osiyo hududida ilk pleystotsen davri paleoekologiyasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar olindi. Hozirda yo'qolib ketgan qator paleoflora va paleofauna qoldiqlari aniqlandi. Selung'urning madaniy qatlamlaridan 30 xil sut emizuvchilarning 4000 dan ziyod suyak bo'laklari, shuningdek ayrim reptiliyalar va qushlarning suyak qoldiqlari topilgan⁴¹.

Gul-chang spektrlarining taksonomik tarkibi startigrafik kesmalarda sezilarli o'zgarishlarga uchramagan. Daraxtlarga oid gul-chang namunalar orasida qarag'ay va o'rmon yong'og'i, o'tlar orasida esa ro'yansimonlar, shuvoq, boshhoqlilar va h.k.lar yaxshi namoyon bo'ladi⁴². Taxmin qilinishicha, o'sha davrda vodiya va tog'larning pastki qismlarida dasht landshaftlari hukmron bo'lgan, daryolar bo'ylarida esa qayrag'och, qarag'aylar, tog'larda archasimonlar va undan ham yuqoriroqda keng bargli va igna bargli daraxtlar o'sgan. Umuman, Selung'urda hayot hukm surgan davrlarda iqlimning hozirgiga nisbatan paleolit davrida anchayin nam bo'lganligidan dalolat beradi.

³⁸ Pleystotsen-to'rtlamchi davrning geologik bosqichi bo'lib, 2,588 mln yildan to 11,7 ming yillargacha davom etgan.

³⁹ Анарбаев А.А., Сайфуллаев Б.Қ., Саидов М.М. Сўх қадимда ва ўрта асрларда (археологик материаллар мисолида). – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2022. – Б. 72.

⁴⁰ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Древнепалеолитические орудия труда из Ферганской долины // ОНУ, 1987, № 4.– С. 6.

⁴¹ Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сельунгур // ОНУ, 1990, № 12. – С. 7; Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древне палеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск, 1992. – С. 143-163. Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сельунгур // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988. – С. 7. Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А.К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сельунгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988. – С. 24.

⁴² Исламов У.И., Халмухамедов Р.А., Крахмаль К.А. Исследования палеоэкологии антропогена Центральной Азии // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Новосибирск: изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. – С. 113-118.

Barcha davrlarda doimiy hukm surgan sharoitlardan biri ichimlik suvi manbalarining mavjudligi bo'lgan. Bunday manbalar A.S. Kesning fikricha, O'rta Osiyo tekisliklarida tranzit daryolar, qorlar va yomg'ir suvlari hosil qiladigan vaqtinchalik ko'llar, vaqtinchalik irmoqlar, ko'llar va buloqlar, keyingi davrlar uchun esa quduqlar hisoblanadi⁴³. Suv manbalari bilan qadimgi fauna va flora vakillari yonma-yon hukm surgan va bu ibtidoiy populyatsiyalarning muhim hayotiy ehtiyojlarini ta'minlagan.

O'rta Osiyo hududlarida ilk pleystotsen davrida, hozirda esa yo'qolib ketgan fil, karkidon, gazel, kiyik, yovvoyi ho'kiz, g'or ayig'i, g'or sheri va h.k. yirik hayvonlar yashagan⁴⁴.

Teshik-tosh g'ori O'rta Osiyoning faunistik materiallari saqlanib qolingan noyob yodgorliklaridan biridir⁴⁵. Bu yerda sibir tog' echkisi suyak qoldiqlari ko'pchilikni tashkil qiladi (83%). Shuningdek, ot, qo'ng'ir ayiq, qoplon va taxminan g'or shoqolining qoldiqlari aniqlangan. Kemiruvchilardan quyon, kurka, sug'ur, ko'rsichqon, dala sichqoni, turkiston kalamushi suyak qoldiqlari ham topilgan. Qatlamlar faunasi orasida deyarli farq sezilmaydi⁴⁶. Bundan tashqari, Teshik-tosh g'ori qatlamlaridan 20 ga yaqin qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan⁴⁷.

Obirahmat g'orining joylashuvi ham ibtidoiy odam yashashi uchun juda qulay bo'lgan. G'or uzoqroqdan ko'zga ko'rinmaydi. Unga yetib kelganingizdan keyin atrof keng va yorqin namoyon bo'ladi. Obirahmatda yirtqichlardan mushuksimonlar, oltinrang shoqol, toloy quyon, surka, yumronqoziq, yirik qushlar, jayra, g'or sheri, tog' echkisi (47 %), bug'u (17,1 %), kiyik kabi hayvonlar suyaklari topilgan. Obirahmatdan shuningdek ot, toshbaqa, bo'ri, shoqol va ayiq suyaklari ham aniqlangan. Obirahmat g'ori suyak qoldiqlariga ko'ra tadqiqotchilar makonning ibtidoiy odamlar tomonidan mavsumiy o'zlashtirilganligi va ular asosan, tog' echkilari va kiyiklarning ortidan borganligi haqida xulosaga keldilar. Yodgorlikning janubga qaraganligi va tik qoya tagida joylashganligi bu hayvonlarga pistirmadan ov qilish imkonini bergan.

Yuqoridagi rakurslardan ko'rinib turibdiki, ibtidoiy odam tomonidan hududlarning o'zlashtirilishi uchun paleoekologik sharoitlar eng muhim omil vazifasini o'tagan. Qadimgi odamlar doimiy ravishda qulay sharoitlarni qidiruvda yashaganlar. Faqatgina eng qulay paleoekologik sharoitlarda istiqomat qilganlar. Bunday omillar quyidagilardan iborat bo'lgan: 1. Avvalombor, chuchuk suv

⁴³ Кесь А.С. Природные факторы, обуславливающие расселение древнего человека в пустынях Средней Азии. – Кратк. сообщ. Ин-та этногр. АН СССР. Вып. XXX. М., Изд-во АН СССР, 1958. – С. 238.

⁴⁴ Исламов У.И., Халмухамедова Р.А., Крахмаль К.А. Исследования палеоэкологии антропогена Центральной Азии // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Новосибирск: изд-во ИАЭТ СО РАН, 2002. – С. 113-118; Omonov.A.M. Some Considerations about Paleoeology of Central Asia and Migrations of Ancient Hominids During the Pleistocene Period // International Journal of Social Sciences, Vol. 4 No (3), 2021. – P. 341-345.

⁴⁵ Громова В.И. Плейстоценовая фауна млекопитающих из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан. Тешик-Таш. Палеолитический человек. М., 1949. – P. 44.

⁴⁶ Окладников А.П. Исследование мустьерской стоянки и погребения неандертальца в гроте Тешик-Таш, Южный Узбекистан (Средняя Азия) // Тешик-Таш. Палеолитический человек. М., 1949. – С. 67.

⁴⁷ Сулова В.П. Плейстоценовая орнитофауна из грота Тешик-Таш, Южный Узбекистан. Тешик-Таш. Палеолитический человек. М., 1949. – С.34.

havzalarining mavjudligi (daryolar, buloqlar, mavsumiy soylar va h.k. suv manbalarining mavjudligi); 2. Suv havzalarida atrofida flora va faunaning boyligi; 3. Tabiiy boshpanalarning mavjudligi va ularning ovchilik va yashash uchun qulayligi (ochiq hududlarda yerto'lalar, chaylalar qurib yashaganlar); 4. Makonlarning strategik nuqtai-nazardan yuqori darajada ta'minlanganligi (makonlarning panaligi, atrofni kuzatish imkonining mavjudligi, ovchilik va termachilik qilish imkoniyatlarining kengligi); 5. Makonlarning quruq saqlanishi hamda tabiiy ta'sirlardan himoyalanganligi kabilar.

Shunday sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda ham qadimgi odamlar makonlarda mavsumiy istiqomat qilganlar. Negaki hududda mavjud bo'lgan ov hayvonlari sharoitga qarab (o'simliklar zaxiralarining kamayib ketishi va shafqatsiz ov qilinishi) hududlarni tark etishi oqibatida makonlarni mavsumiy o'zgartirib turishlari kuzatiladi.

Tabiiy omilning ibtidoiy odamlar hayotiga yana bir muhim ta'siri shundaki, migratsion ko'chishlar yoki demografik o'zgarishlar natijasida mutlaqo boshqa paleoekologik sharoitlarga tushib qolishlari mumkin bo'lgan. Bunday sharoitlarda yangi ekologik muhitlarga moslashish hayotiy zaruratga aylangan. Oqibatda kelib chiqishi bir xil bo'lgan jamoalar kundalik hayot tarzini o'zgartirishga majbur bo'lganlar va bu madaniy tafovutlarning shakllanishiga olib kelgan⁴⁸.

Uchinchi bobning 2-paragrafida ibtidoiy davr xo'jaligiga "Xom ashyo omili" ning ta'siri masalasi tadqiq etiladi. Paleolit davri aholisi xo'jaligining farqlanishida xom ashyo omili ham katta ta'sir ko'rsatgan. Biroq tadqiqotchilar tomonidan bu yo'nalishdagi izlanishlarni rivojlantirishga ko'p e'tibor berilmagan. Shunday bo'lsada, O'zbekiston paleolit tosh jamoalari turmush tarzi tadqiqida ushbu rakursdagi ayrim tadqiqotlar olib borilgan va qo'lga kiritilgan natijalar qiziqarli ma'lumotlarni bergan. Bu borada O'rta Zarafshon vohasidagi Qo'tirbuloq va Zirabuloq makonlari materiallari yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan⁴⁹.

Qo'tirbuloqning chaqmoqlash texnikasini tahlil qilish natijasida, aytish mumkinki, yuqori sifatli tosh xom ashyosining tanqisligi ko'zga tashlanadi va bu qadimgi qo'tirbuloqliklardan yuqori sifatli materiallarni anchayin iqtisod qilib, foydalanishlariga hamda sifati pastroq toshlardan ham keng foydalanishlariga majbur etgan. Bunday "xom ashyo siyosati" Qo'tirbuloqdagi chaqmoqlash texnikasiga va yodgorlik industriyasining umumiy ko'rinishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

⁴⁸ Джуракулова Д.М. Зарафшон водийси тош ва жез даври ёдгорликларининг хронологияси «Марказий Осиё деҳқончилиги ва дашт цивилизациясининг ўзаро муносабатлари» мавзусида илмий-назарий анжуман материаллари. Самарқанд, 2011. – Б. 47-54; О'sha muallif. Зарафшон водийсининг ибтидоий давр қабилалари моддий маданияти. «Ижтимоий фанларнинг методологияси» мавзусида ўтказилган Республика илмий-назарий семинари материаллари. Самарқанд, 2011. – Б. 22-28; О'sha muallif. Зарафшон водийси палеоэкологияси Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги масалалари: тарих ва тараққиёт. Самарқанд-Тошкент, 2016. – Б. 163-167; О'sha muallif. Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври маданияти. – Тошкент: Фан, 2011. – Б. 256; О'sha muallif. Зарафшон хавзасининг ибтидоий давр тарихи. – Самарқанд: "Зарафшон" нашриёти, 2015. – Б. 215; О'sha muallif. Зарафшон водийси ибтидоий уруғ жамоаларининг ишлаб чиқарувчи хўжаликка ўтиш ва унинг ижтимоий- иқтисодий асослари. // СамДУ Ахборотномаси, Самарқанд, 2012. – Б. 12-17; Djurakulova D.M. Nouveaux sites paléolithiques de l'oasis de Djizak L'anthropologie, № 121. Paris, France. septembre-octobre, 2017. – P. 300-311.

⁴⁹ Сайфуллаев Б.К. Палеолит долины р. Зарафшана и Северо-Восточной части Центральных Кызылкумов. Автореф. дисс. на соискание уч.степ.канд.истор.наук. Самарқанд, 2004. – С. 21.

O'rta Zarafshon vohasidagi Zirabuloq makoni industriyasida ham xom ashyo tanqisligi kuzatilgan. Zirabuloq va Qo'tirbuloq makonlari 1,5 km masofada joylashgan hamda har ikkala yodgorlikning qadimgi aholisi tomonidan ishlov berilgan xom ashyo tarkibi bir xilda bo'lgan. Ushbu makonlarga hech qanday xom ashyo eksporti amalga oshirilmagan. Zirabuloqda, xuddi Qo'tirbuloqda bo'lgani kabi asosan besh xil xom ashyodan foydalanilgan va ularning foiz nisbati makonlar aholisining tanloviga bog'liq bo'lgan.

Zirabuloqda tosh qurollar sifatining yaxshilanishiga olib kelgan sabablarni kuzatish mumkin. Sifatli xom ashyoning tanqisligiga qaramasdan Zirabuloqda chaqmoqtosh jinrlarining son jihatidan ustunligi seziladi. Bu holat Zirabuloqda yashagan ibtidoiy aholining tosh jinrlarini tanlashda va ularni ishlov berishda yuqori darajada taraqqiy topgan tajribalarning mavjud bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Qo'tirbuloqdagiga nisbatan Zirabuloqda qayroqtosh jinrlari ahamiyatining pasayganligi uning sifatining pastligi va talabga javob bermasligi, hamda bu qadimgi zirabuloqlik ustalarining ehtiyojlariga mos kelmasligi bilan bog'liqdir. Qo'tirbuloqda kvarsqa ishlov berishning ilk paleolit davrida keng qo'llanilgan sharsimon yoki sistemasiz chaqmoqlash usullari qo'llanilgan. Shuningdek Qo'tirbuloqda kvarsdan ishlangan parallel ravishdagi "muvaffaqiyatsiz" ishlov berilgan tosh o'zaklar ham mavjud. Zirabuloq makonidagi o'zaklarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular kvarsqa ishlov berishning yuqori darajada taraqqiy topganligidan dalolat beradi va bu haqda kvarsdan ishlangan parallel ravishda chaqmoqlangan o'zaklar va hatto, ayrim mikronukleuslarning mavjudligi guvohlik qiladi.

Shunday qilib, paleolit davri yodgorliklarining madaniy jihatdan differentsiyalashuvida xom ashyo omili katta ta'sir ko'rsatgan, deb xulosa qilish mumkin. Agar O'rta Zarafshon vohasi paleolit davri yodgorliklarini Toshkent vohasi sinxron yodgorliklari bilan qiyoslasak, xom ashyo sifati, hajmi va mo'l-ko'lligidan kelib chiqadigan farqlar seziladi. Masalan, Toshkent vohasining Obirahmat g'or makonida yuza bo'ylab chaqmoqlashdan keng va yirik yuza bo'ylab chaqmoqlash texnologiyalariga o'sib o'tish kuzatiladi. Ammo, ta'kidlash joizki, Obirahmat g'ori atrofida kremniylashgan oxaktoshning harsanglar ko'rinishidagi plastlari uchraydi va bu holat yodgorlikda keng yuza bo'ylab chaqmoqlashga o'tishga imkon yaratgan. Qo'tirbuloq va Zirabuloqlik ustalarga esa sifatli materiallarning kichik hajmliligi bunday texnikaning paydo bo'lishiga monelik qilgan deyish mumkin.

Xom ashyo omilining yoki gabaritining industriyalar ko'rinishiga ta'siri Qoraquduq 1-3 ustaxonalari misolida ham yorqin namoyon bo'ladi. Yodgorlikda xom ashyoning hajmiga ko'ra tanqis sharoitlari aniqlandi va bu materiallarda o'z isbotini topdi. Qoraquduqqa tashrif buyurgan ibtidoiy jamoalar o'zidan avvalgi tosh buyumlarni topib, ularga qaytadan ishlov berganliklari artefaktlar asosida isbotlandi va bunga "Qoraquduq fenomeni" nomi berildi. Haqiqatda, ilk paleolit davrida tashlab ketilgan ishlov berilgan toshlarni oradan o'n ming yillar o'tib, o'rta va so'nggi paleolit davrida qaytadan ishlov berilishi paleolitshunoslikda noyob hodisadir.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit davriga o‘tish modellari. (Xalqaro va mahalliy ekspeditsiyalar tadqiqot natijalari asosida)**”, deb nomlanib, uchta paragraflardan iborat. Bobning 1-paragrafi “Obirahmat modeli”ning ilmiy talqiniga bag‘ishlangan va bu model rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan taklif qilindi⁵⁰.

Yer yuzining barcha mintaqalarida sodir bo‘lgan so‘nggi paleolit davri xo‘jalik taraqqiyotidagi inqilob O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda ham o‘ziga xos tarzda yuz bergan va bu yurtimizdan topib o‘rganilgan so‘nggi paleolit davrining ilk bosqichiga oid yodgorliklarida namoyon bo‘ladi. Ammo birorta hududda so‘nggi paleolit davri kashfiyotlari bo‘sh joydan vujudga kelmagan va mahalliy yoki kelgindi madaniyatlar negizida shakllangan.

O‘zbekiston hududida so‘nggi paleolit davrining ilk bosqichiga oid uchta xo‘jalik komplekslari aniqlandi va ularni uchta modellarga ajratish mumkin. O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit davriga o‘tishning birinchisi – Obirahmat modeli deb nomlanib⁵¹, u hududning qadimgi aholisi texnologik potensialini aniqlash maqsadida tosh buyumlarni an‘anaviy (deskriptiv) texnik-tipologik uslub va texnologik uslublar yordamida o‘rganilishi natijasida shakllandi.

G‘arbiy Pomir-Tyanshanning ko‘zga ko‘ringan plastinali industriyalarini tahlil qilish natijalari ularning yagona madaniy an‘anaga mansub ekanligini ta‘kidlash imkonini berdi va bu madaniyat bundan 80-70 ming yillardan to 40-35 ming yillargacha hukm surganligi aniqlandi. O‘rganilgan komplekslarning xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning o‘tish davri industriyalari ekanligi ko‘rsatgichlari ishlab chiqildi hamda o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit bosqichiga o‘tishning obirahmat varianti ajratildi⁵².

Obirahmat madaniyati turmush tarzini qo‘shni jamoalar turmush madaniyati bilan qiyoslash o‘rta paleolitdan so‘nggi paleolit bosqichiga o‘tishning obirahmat varianti mavjudligini ko‘rsatdi. Obirahmat varianti Yaqin Sharq hamda Zagros mustesi bilan bo‘lgan o‘zaro madaniy aloqalar natijasida shakllanganligini ko‘rsatdi (akkulturasiya).

O‘rtadan so‘nggi paleolit bosqichiga o‘tishning Obirahmat variantini asosiy xususiyati unda mayda chaqmoqlash texnikasi turlarining ancha ertaroq paydo bo‘lganligidir. Shuningdek, Obirahmat madaniy an‘anasi ushbu hududda so‘nggi paleolit davri xususiyatlarining shakllanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilganligi aniqlandi.

To‘rtinchi bobning 2-paragrafi “O‘rta Zarafshon modeli”ning tadqiqiga bag‘ishlangan. Zarafshon vohasi hududi tosh davriga oid arxeologik yodgorliklarining ko‘pligi va xilma-xilligi, ularning tarixiy ketma-ketlikda rivojlanishi bilan O‘rta Osiyoning eng qadimgi davri tarixida muhim o‘rin tutadi. Dissertatsiyaning ushbu paragrafidan O‘rta Zarafshon vohasi hududida o‘rta, so‘nggi

⁵⁰ Кривошапкин А.И. Обирахматский вариант перехода от среднего к верхнему палеолиту в Центральной Азии. Автореф. дисс. на соиск.уч.степ. докт.истор.наук. Новосибирск, 1992. – С. 5-24.

⁵¹ O‘sha joyda. – С. 22.

⁵² O‘sha joyda. – С. 24.

paleolit va mezolit davrlari arxeologik materiallarini o'zida aks ettirgan Zirabuloq makoni tosh artefaktlarining ilmiy tadqiqi natijalari aks ettirilgan. Ushbu yodgorlikni tadqiq etishda xalqaro hamkorlik natijasilari muhim o'rin tutadi. Taniqli paleolitshunos olim B.Sayfullayev tomonidan ushbu yodgorlikning tosh buyumlari "F. Bord texnik-tipologik usulining modernizatsiyalashgan sistemasi", J. Peligrin tomonidan ishlab chiqilgan texnologik usul va S. Tibua tomonidan morfologik usullari yordamida tadqiq etilgan⁵³.

Zirabuloqning so'nggi paleolit davri kolleksiyasida paleolitshunoslikda noma'lum bo'lgan o'zak toshlarning yangi tipi aniqlangan⁵⁴. Bunday nukleuslardan "ko'rsatgich barmoq" tipidagi tosh pichoqlarni chaqmoqlab olish uchun oldindan (nukleuslarning pastki uchi qiya yo'nishlar yordamida kesilgan) tayyorlangan konseptual tosh sindirish texnikasi hisoblanadi. Ushbu o'zaklar "Zirabuloq tipidagi chaqmoqlash usuli" yoki "Zirabuloq tipidagi nukleuslar" deb, ulardan hosil qilingan tanovorlarni esa, "Zirabuloq tipidagi ko'rsatgich barmoq pichoqlari", deb nomlangan.

Zirabuloqning so'nggi paleolit davriga oid kompleksida qirg'ichchalarning g'arbiy Yevropa ilk yuqori paleolit uchun xos bo'lgan tumshuqli (amyuzo), perimetrining 4/3 qismi ishlov berilgan, qalin tipli (karane) va yumaloq shakllilari ham uchraydi. To'planning qirg'ichchalari o'rta paleolit davri qirg'ichchalaridan rivojlangan shakli, paralel ishlov berilganligi va tartibliligi bilan ajralib turadi.

Zirabuloqning ilk so'nggi paleolit davriga oid deb topilgan kompleksi mahalliy o'rta paleolit davri an'analari asosida rivojlangan mahalliy xarakterga ega. Aytish mumkinki, O'rta Zarafshon hududi o'rta paleolit davriga oid parallel levallua tipidagi toshga ishlov berish texnologiyalari asosida rivojlangan jamoalar tomonidan o'zlashtirilgan va mahalliy asosda ilk so'nggi paleolit jamoalariga o'sib o'tgan.

Zirabuloqning va umuman, O'rta Zarafshon vohasi paleolit davri industriyalari Obirahmat varianti komplekslari bilan ayrim o'xshashliklar qatorida bir qator tafovutlarga ham ega. Masalan, Obirahmat madaniyatida nukleuslarni yuza bo'ylab chaqmoqlashdan keng yuza bo'ylab chaqmoqlashga o'tish sodir bo'lgan bo'lsa, paralel yoki tig'lar chaqmoqlab olingan levallua texnikasi O'rta Zarafshon vohasida o'zgarmasdan qoladi. Shuningdek, Obirahmat modeli industriyalarida keng tarqalgan iskanasimon qurollar va yonlama chaqmoqlash texnikasi O'rta Zarafshonning o'rta va so'nggi paleolitga oid komplekslarida ham uchraydi.

Zirabuloqning so'nggi paleolitga oid kompleksini boshqa variantlardan ajratib turuvchi asosiy belgisi bu kompleksda baliq tangachalarini tozalashga ixtisoslashgan tosh pichoqlarning va ushbu pichoqlarni sindirib olishga mo'ljallangan maxsus texnikaning hukm surganligidadir. Zirabuloqning ilk so'nggi paleolitga oid kompleksi G'arbiy Yevropaning orinyak madaniyatlariga ham o'xshashliklarga ega va bu turli shakllardagi qirg'ichchalarda namoyon bo'ladi.

⁵³ Сайфуллаев Б.Қ. Ўрта Зарафшон воҳаси тош даври маданиятлари. Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2022. – Б. 4-7.

⁵⁴ Джуракулов М.Д., Сайфуллаев Б.Қ. Зирабулоқнинг "кўрсатгич бармоқ" типидagi тош пичоқлари // Ўзбекистон Археологияси, Самарқанд: 2018. – Б. 64-75.

To‘rtinchi bobning 3-paragrafi “O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi jamoalarning o‘rta paleolit davridan so‘nggi paleolit bosqichiga o‘tishning Borsa-Kelmas modeli” ni o‘rganilishiga bag‘ishlangan. O‘zbekiston hududidan so‘nggi paleolit davrining ilk bosqichiga oid yodgorliklar Ustyurt platosining Borsa-Kelmas botig‘i sohillaridan ham topilgan⁵⁵.

Ustyurtdagi Borsa-Kelmas botig‘i paleolit davri toshga ishlov berish ustaxonalariga boy hudud hisoblanadi. Botiqdan Yesen-2 va Qoraquduq kabi qiziqarli yodgorliklar aniqlangan.

Ishlanish texnikasi va saqlanish darajasiga ko‘ra Qoraquduq ustaxonasi materiallari uchta madaniy-davriy komplekslarga ajratilgan. Uning ikkinchi kompleksi o‘rta paleolitning ashel an‘anali muste madaniyatiga kiritilgan. Ushbu kolleksiya 703 ta tosh buyumdan iborat bo‘lib, unga tashqi tomoni oftobda kuygan (pustinniy zagar) artefaktlar kiritilgan.

Borsa-Kelmas botig‘ida joylashgan Yesen-2 va Qoraquduq topilmajoylarining yangicha talqini O‘zbekiston tarixida yangi sahifalarni ochdi. Qoraquduq va Yesen-2 topilmajoylari O‘rta Osiyo tarixini mutlaqo yangi ixtisoslashgan ustaxonalar bilan boyitdi. Ammo bu ixtisoslashuv neolit davrida bo‘lgani kabi tovar ayirboshlash uchun emas, balki ishlab chiqaruvchi jamoaning o‘z ehtiyojlari bilan cheklangan ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, O‘zbekiston tarixida qadimgi jamoalarning o‘rtadan so‘nggi paleolit bosqichiga o‘tishning uchta: Obirahmat, O‘rta Zarafshon va Borsa-Kelmas modellari mavjud bo‘lgan. O‘tishning Obirahmat modeli Obirahmat, Qizilolma-2, Ko‘lbuloq va To‘daxotin yodgorliklarida xronologik tarzda namoyon bo‘ladi. Obirahmat variantining xarakterli xususiyatlari plastinalar chaqmoqlab olishda, mikrochaqmoqlash texnikasining ancha erta paydo bo‘lganligida, yonlama nukleuslarda, iskanasimon qurollarda hamda yuza bo‘ylab levallua chaqmoqlashdan keng yuza bo‘ylab qovurg‘ali plastinalar sindirib olishga o‘tishda hisoblanadi. Ushbu model Yaqin Sharq va Zagros mintaqasining madaniy aloqadorligi natijasida shakllangan.

O‘zbekiston tarixida qadimgi jamoalarning so‘nggi paleolit bosqichiga o‘tishning O‘rta Zarafshon modeli esa, shubhasiz, qo‘shni madaniyatlar bilan mustahkam madaniy aloqada, biroq mahalliy o‘rta paleolit asosida shakllangan. Shuning uchun ham ushbu variantga oid so‘nggi paleolit komplekslarida vorisiylik, ya‘ni an‘naviylik kuchli darajada namoyon bo‘ladi. O‘rta Zarafshon modelini ajratib turuvchi xususiyatlar: parallel-levallua, uzunchoq levallua tig‘lar (points levalluases), iskanasimon qurollarda, turli modifikatsiyalardagi qirg‘ichchalarda va eng asosiysi baliq tangalarini tozalashga mo‘ljallangan “ko‘rsatgich barmoq” tipidagi tosh pichoqlar va ularni sindirib olishda qadimgi ustalar konseptual texnikadan foydalanilganligi hisoblanadi. O‘rta Zarafshon modeli yodgorliklari O‘zbekistonda baliqchilikning paydo bo‘lishini so‘nggi paleolit davrining boshlarigacha qadimiylashtirdi.

⁵⁵ Баратов П., Маматкулов М., Рафиков А. Ўрта Осиёнинг табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 2002. – Б. 440.

O'rta Zarafshon modeli komplekslarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularning bir tomondan, Obirahmat (iskanasimon qurollar, yonlama nukleus-kesgichlar va parallel-levallua chaqmoqlash) va ikkinchi tomondan, Orinyak (turli modifikatsiyadagi qirg'ichchalar) madaniyatlariga o'xshashliklarga hamda uchinchi tomondan, qator o'ziga xosliklarga (ko'rsatg'ich barmoq tipidagi chaqmoqlash) egaligida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston tarixida qadimgi jamoalarning so'nggi paleolit bosqichiga o'tishning uchinchi, Borsa-Kelmas modeli shu nomli botiqdan topilgan Qoraquduq-2 va Yesen-2 ixtisoslashgan toshga ishlov berish ustaxonalari komplekslarida namoyon bo'ladi. Qoraquduq-2 ustaxonasi ilk paleolit davri an'alarini saqlab qolgan o'rta paleolit variantiga xos bo'lib, o'z taraqqiyoti davomida so'nggi paleolitning boshlariga oid Yesen-2 industriyasiga o'sib o'tgan. Yesen-2 topilmajoyi bifaslari Qoraquduqnikidan ancha takomillashgan texnikada (shox bolg'a yordamida) ishlanganligi, yupqa va simmetrikligi bilan ajralib turadi. Shuningdek Qoraquduqdagidan farqli o'laroq, Yesen-2 kompleksga yengil ushatg'ichlar yordamida parallel-levallua chaqmoqlash texnikasi ham hukm surgan va bu kompleks Qizilqum va O'rta Zarafshonning sinxron kolleksiyalariga o'xshashdir. Biroq bifaslar ishlab chiqarish an'anasi Obirahmat va O'rta Zarafshon komplekslarida uchramaydi.

Borsa-Kelmas modelining kelib chiqishi masalasida aytish mumkinki, Orolbo'yi Qozog'iston, Krasnovodsk va Kaspiybo'yi hududlarida ilk paleolitga oid bifasial komplekslar uchraydi. Shuning uchun ham Borsa-Kelmas modeli komplekslari Kaspiy-Orolbo'yi madaniyatlari doirasiga kiritilishi mumkin.

Dissertatsiyaning beshinchi bobi **“Mahalliy va xalqaro ekspeditsiyalar tadqiqotlarida O'zbekiston paleolit davrining yangicha madaniy-davriy talqini”**, deb nomlangan va ikkita paragraflardan iborat. XX asrning o'rtalarida X. Moviusning Yevrosiyo hududida ilk paleolit davri madaniyatlarining turli-tumanligi haqidagi nazariyasi shakllandi. Unga ko'ra, ilk paleolit davrida ikkita yirik madaniy areal hukm surgan: 1. G'arbda qo'l cho'qmorli. 2. Yevropadagidan farqli o'laroq, faqat bir taraflama ishlov berilgan galkali qurollarga ega Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo madaniyatlari. Kaspiy dengizidan Hinduqushgacha bo'lgan hududlar mana shu ikki madaniyatlar o'rtasidagi chegara bo'lgan⁵⁶. Bunday dunyoqarash Markaziy Osiyoda X. Moviusning tuzilmalariga ko'ra paleolit davri industriyalarining turli-tumanligini tushuntirishga bo'lgan harakatlarni keltirib chiqardi. Biroq X. Moviusning madaniyatlarni tarqalishi haqidagi nazariyasi to'liq tasdiqlanmadi.

Birinchi paragraf **O'zbekistonda qadimgi tosh davri madaniyatlarining paydo bo'lishi va analogiyalari masalalariga** bag'ishlangan. Eng qadimgi odamlarning Afrika qit'asidan kelib chiqqanligi va bundan 2 mln yillar muqaddam Yevroosiyoqa tarqalganligini hozirda hech kim inkor etmaydi. Asosiy muammo, bunday migratsiyalar necha marta sodir bo'lganligi va qay yo'sinda kechganligidadir. XX asrning o'rtalaridan boshlab, Afrika beshigi ssenariysi

⁵⁶ Movius H. The Lower Paleolithic Cultures of Southern and Eastern Asia. – Philadelphia, 1949. – P. 258.

asosida, albatta arxeologik materiallar asosida yangidan-yangi tuzilmalar shakllandi.

1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida dunyo paleolitshunoslik fanida F. Bord g'oyalari keng tarqaldi⁵⁷. Unga ko'ra o'rta paleolit davridayoq bir nechta "madaniy guruhlar" hukm surgan va ular asosida madaniy ketma-ketlik yoki madaniy o'zgaruvchanlik kuzatilishi mumkin bo'lgan. Ushbu tuzilmalar butun dunyo arxeologlari tomonidan qabul qilindi.

Ta'kidlash joizki, madaniy-davriy sxemalar ko'pincha o'rta paleolit davri yodgorliklari asosida tuzildi, negaki O'zbekistonda so'nggi paleolit va mezolit davri makonlarining o'rta paleolit davri yodgorliklariga nisbatan miqdoriy nomutanosibliigi mavjud edi. V.A. Ranov ushbu dalilni er.av. 40-ming yillikdan 25-ming yilliklar oralig'idagi hududning depopulyatsiyasi bilan bog'liq deb hisoblagan. Bunday depopulyatsiyaning sababi iqlimning quruqlashuvi va oqibatda, hayvonot hamda o'simliklar zaxiralarining keskin kamayib ketishi bo'lishi mumkin⁵⁸. G.P. Grigoryevning hisoblashicha, O'rta Osiyoda o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish uzoq vaqt davom etgan va bu yerda klassik nuqtai-nazardan "sof" so'nggi paleolit bosqichi bo'lmasligi ham mumkin⁵⁹. K.A. Kolobova va A.I. Krivoshapkinlarning ta'kidlashicha, hududdagi so'nggi paleolit davri yodgorliklarining ayrimlari xato ravishda mezolit davri bilan sanalab yuborilgan. Negaki ilgari mezolit davri madaniyatlarini ajratishning asosiy mezonini mikrolitlar chaqmoqlab olish uslubining mavjudligi hisoblanar edi. Biroq hududning paleolit davrini o'rganish natijalarining ko'rsatishicha, chaqmoqlashning ushbu uslubi so'nggi paleolit davrida ham keng qo'llanilgan⁶⁰.

V.A. Ranov o'zining dastlabki qarashlarini, ya'ni paleolit davri yodgorliklarini A va B guruhlariga ajratiishni F.Bord g'oyalari bilan moslashtirishga harakat qilgan. V.A. Ranov A hamda B guruhlarini o'rtasidagi o'zgaruvchanlikni tasvirlash uchun industriyalarni fatsiyalarga ajratishni taklif qildi. A guruhi (levallua-muste) texnik-tipologik tahlillar asosida uchta variantlarga ajratilgan: levallua, levallua-muste, muste; B - guruhi muste-soan fatsiyasidan tarkib topadi. Tishsimon muste fatsiyasi⁶¹ alohida ajratib ko'rsatilgan⁶².

So'nggi paleolit uchun V.A. Ranov shartli ravishda uchta variantni ajratib ko'rsatgan: Samarqand, Xo'jag'or va Qorakamar. Birinchi guruh yodgorliklari V.A. Ranovning fikricha, A guruhi yodgorliklari doirasiga kiradi va qolgan ikki variant

⁵⁷ Bordes F. Typologie du paléolithique ancien et moyen. – Bordeaux : Delmas. Publications de l'Institut de Préhistoire de l'Université de Bordeaux, Mem. 1, 1961. – P. 103.

⁵⁸ Davis R.S., Ranov V.A. Recent work on the Paleolithic of Central Asia // Evolutionary Anthropology. – Vol. 8. 1999. – P.186–193.

⁵⁹ Григорьев Г.П., Ранов В.А. О характере палеолита Средней Азии // Тезисы докладов сессии, посвященной итогам полевых археологических исследований 1972 года в СССР. – Ташкент: Фан, 1973. – С. 195-197.

⁶⁰ Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатым-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. Серия: история, филология. Т.8. Вып.5: Археология и этнография, 2009. – С. 74–97.

⁶¹ Tishsimon muste fatsiyasi M.R. Qosimovning kuzatishlari asosida ajratilgan.

⁶² Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. – Душанбе, 1973. – С. 22-25.

– B guruhi yodgorliklariga kiritilgan⁶³. V.A. Ranovning ushbu sxemasi keyinchalik yanada asoslanmadi va aksioma sifatida bir ishdan ikkinchi ishga aynan ko‘chirila boshlandi.

R.X. Sulaymonovning hisoblashicha, “O‘rta Osiyoning muste davri makonlarini yodgorliklarning xarakteriga ko‘ra ya‘ni texnik an‘analari, chaqmoqlash uslublari va qurollar tarkibiga ko‘ra ikkita katta guruhga ajratish mumkin”⁶⁴. Uning tomonidan ikkita madaniy an‘ana ajratilgan: tishsimon⁶⁵ – unga Ko‘lbuloq, Bo‘zsuv yodgorliklari va o‘ziga xos (Obirahmat) madaniyatga – Obirahmat, Teshik-tosh, Xo‘jakent, Janubiy Farg‘onaning o‘rta paleolit davri yodgorliklari kiritilgan⁶⁶. Obirahmat madaniyatini R.X. Sulaymonov dinamik taraqqiyotda kuzatadi. Obirahmat madaniyatining O‘zbekiston hududidagi eng qadimgi yodgorligi Teshik-tosh bo‘lib, keyinchalik ushbu madaniyat Xo‘jakent makoni materiallari asosida ajratilgan va ushbu an‘ananing yakuniy bo‘g‘ini Obirahmat hisoblanadi.

Keyinchalik, 1980-yilda N.X. Toshkenboyev hamda R.X. Sulaymonovlar Zarafshon vohasi o‘rta paleolit davri yodgorliklari: Qo‘turbuloq, Zirabuloq, Omon-Qo‘ton va Takaliksoyni alohida taraqqiyot yo‘nalishiga kiritdi. Texnik-tipologik tahlillar asosida tadqiqotchilarning hisoblashicha, Qo‘turbuloq va Zirabuloq Teshik-tosh yodgorligi bilan bir vaqtda hukm surgan, Omon-Qo‘ton, Takaliksoy, Go‘rdara makonlari ushbu madaniy an‘ananing ilk yodgorliklari hisoblanadi⁶⁷.

R.X. Sulaymonov tomonidan texnik-tipologik tahlillar natijalari asosida O‘zbekistonning so‘nggi paleolit davri yodgorliklari (Samarqand makoni, Siyobcha, Xo‘jamazgil) bir-biriga o‘xshash va sinxron deb topildi. Bundan tashqari, uning tomonidan tosh qurollar tarkibi va chaqmoqlash texnikasidagi o‘xshashliklar asosida Zarafshon vohasining o‘rta va so‘nggi paleolit davri yodgorliklari o‘rtasida genetik bog‘liqlik mavjudligi kuzatildi. R.X. Sulaymonovning fikricha, Samarqand makoni materiallari “ancha taraqqiy qilgan ko‘rinishga ega”⁶⁸.

M.R. Qosimov 1970-yillarning boshlarida faqat O‘zbekiston hududidagi o‘rta paleolit davri yodgorliklarini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, 1990-yilda u O‘rta Osiyodagi barcha paleolit davri yodgorliklarini madaniy jihatdan taqsimlab chiqdi. M.R. Qosimovning qarashlarida evolyutsiyani kuzatib bo‘lmaydi⁶⁹, negaki uning mahalliy guruhlashtirishga bag‘ishlangan ikkitagina ilmiy ishi mavjud xolos.

⁶³ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. – Душанбе, 1973. – С. 22-25.

⁶⁴ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 119.

⁶⁵ Р.Х. Сулаймонов ажратган тишсимон анъана М.Р. Қосимовнинг Кўлбулоқ маконида амалга оширган тадқиқотларига асосланган.

⁶⁶ Сулейманов Р.Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 118-120.

⁶⁷ Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Культура древнекаменного века долины Зарафшана. – Ташкент: Фан, 1980. – С. 69-76.

⁶⁸ O‘sha joyda. – С. 91.

⁶⁹ Касымов М.Р. Культура и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстан. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 34-37; Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак). Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990. – С. 47.

1972-yilda M.R. Qosimov O'rta Osiyoning o'rta paleolitida "mahalliy tafovutli" uchta variantni ajratadi. Birinchi variantga Obirahmat, Xo'jakent, Qopchig'oy; ikkinchi variantga – Omon-Qo'ton, Uchtut, Vaush, Ijont, Teshik-tosh; uchinchi variantga Ko'lbuloq va Bo'zsuv makonlari kiritilgan⁷⁰.

So'nggi paleolit davri uchun M.R. Qosimov yodgorliklarning mahalliy tafovutli oltita guruhni ajratadi.

Keltirilgan talqiniy modellar asosida quyidagi umumiy xususiyatlarni qayd qilish mumkin:

-tadqiqotchilar hududdagi paleolit davri madaniyatlarini avtohton taraqqiy etgan, deb hisoblaganlar.

-taklif qilingan tuzilmalar hududdagi paleolit davri madaniyatlari taraqqiyotiga evolyutsion yondoshuv asosida qurildi va bir talay belgilar (masalan, adaptatsion strategiya variantlari, xom ashyoning sifati, yodgorlikning joylashuvi va h.k.lar) hisobga olinmadi. Vaholangki, bular industriyalar ko'rinishining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

-tadqiqotchilar o'zlarining tuzilmalarida F.Bord tomonidan Fransiya materiallari uchun ishlab chiqilgan tipologik sxemadan foydalandilar va uni O'rta Osiyo yodgorliklariga moslashtirmadilar.

-hududning o'rta paleolitga oid yodgorliklarining materiallari asosida tadqiqotchilar bir nechta madaniy guruhlarni ajratdilar (R.X. Sulaymonov, T.M.Omonjulov va L.I. Kulakovskayalar ikkitadan madaniy guruh, V.A. Ranov – beshta guruh va M.R. Qosimov – yettita guruhlarni ajratganlar). Bunday taqsimlashlardan qat'iy nazar Ko'lbuloq yodgorligi materiallari asosida tishsimon muste guruhi alohida ajratildi.

Ikkinchi paragraf "Mustaqillik yillarida O'zbekiston paleolitining yangicha madaniy-davriy talqini" deb nomlanadi.

Keyingi yillarda A.P. Derevyanko tomonidan Yevroosiyoda ilk paleolitning bifasial industriyalarining paydo bo'lishi borasida ikki xil ssenariy taklif qilindi.

Birinchi ssenariyga ko'ra, bifasial texnologiyalar Afrikadan Yevrosiyoga kirib kelib tarqalmagan va texnologik konvergensiya natijasidir. Afrikada ashel industriyalari 1,5-1,75 mln yillar muqaddam paydo bo'ldi. Yevrosiyodagi eng qadimgi ashelga oid topilmajoylar – Ubaydiya (1,4 mln yil) hamda Gesher-Benot-Yakov (0,8 mln yil) hisoblanadi. Yevropada ashelga oid topilmajoylar 600-650 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan⁷¹. Ashel madaniyatining Yevrosiyoning sharqiga yo'nalgan eng muhim tranzit yo'li Arabiston yarim oroli hamda Eron tog'lari orqali bo'lgan. Arabistonda ashel topilmajoylari 400-450 ming yillar muqaddam paydo bo'lgan⁷².

⁷⁰ Касымов М.Р. Культура и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстан. – Ташкент: Фан, 1972. – С. 34-37.

⁷¹ Деревянко А.П. Бифасиальная индустрия в Восточной и Юго-Восточной Азии. – Новосибирск: изд-во ИАЭТ СО РАН, 2014. – С. 37.

⁷² Biglari F., Nokandeh G. Heydari S. A recent find of a possible Lower Paleolithic assemblage from the foothills of the Zagros Mountains. *Antiquity*, vol. 74: 2000. - P. 749-750. Biglari F., Heydari S., Shidrang S., Ganj Par: The First Evidence for Lower Paleolithic Occupation in the Southern Caspian Bas. in. *Antiquity*, vol. 78, No. 302: 2004. - P.1-3. Biglari F., Shidrang S. The Lower Paleolithic occupation of Iran. *Near Eastern Archaeology*, vol. 69, No. 3/4: 2006. – P. 160-168.

Markaziy Osiyoda soʻnggi ashelga oid industriyalar Qozogʻistonda, Turkmanistonda, Moʻgʻulistonda kuzatiladi. Bifasial industriyalar quyi paleolitning finali va oʻrta paleolitning ilk bosqichlariga oid topilmajoylarida ancha yorqin namoyon boʻladi⁷³. Markaziy Osiyoning barcha paleolit davri topilmajoylari 300-250 ming yildan qadimiy emas⁷⁴. Xronologik jihatdan Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoda bifasial ishlov berish tranzit hududlaridan koʻra ertaroq paydo boʻlgan va texnik-tipologik koʻrsatgichlarga koʻra Yevrosiyoning gʻarbidagi ilk paleolit davriga oid bifasli topilmajoylari Janubiy va Markaziy Osiyodagidan farq qiladi va bu Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyoda bifasial industriyalarning texnologik konvergensiya oqibatida paydo boʻlgan deyishga asos boʻla oladi.

